



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 5**

**2026**

## **BOBURIYLAR DAVRIDA MADANIY YUKSALISHNING IJTIMOYIY-SIYOSIY ASOSLARI**

**Maxmasobirova Feruza**

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, o‘qituvchi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Boburiylar davrida Hindistonda madaniy rivojlanishning siyosiy va ijtimoiy asoslari yoritilgan. Muallif mazkur davrda davlat boshqaruvi, ijtimoiy muhit va siyosiy barqarorlik madaniyat, ilm-fan hamda san’at rivojiga qanday ta’sir ko‘rsatganini ochib bergan.

**Kalit so‘zlar:** Boburiylar davri, Hindiston tarixi, siyosiy omillar, ijtimoiy omillar, madaniy rivojlanish, davlat boshqaruvi, ilm-fan, san’at.

## **СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КУЛЬТУРНОГО РАСЦВЕТА В ЭПОХУ БОБУРИДОВ**

**Макмасобирова Феруза**

Международная исламская академия Узбекистана, преподаватель

### **Аннотация**

В данной статье рассматриваются политические и социальные основы культурного развития Индии в эпоху Бабуридов. Автор раскрывает влияние государственной политики, общественной среды и политической стабильности на развитие культуры, науки и искусства.

**Ключевые слова:** эпоха Бабуридов, история Индии, политические факторы, социальные факторы, культурное развитие, государственное управление, наука, искусство.

## **SOCIO-POLITICAL FOUNDATIONS OF CULTURAL DEVELOPMENT DURING THE BABURID ERA**

**Maxmasobirova Feruza**

International Islamic Academy of Uzbekistan, Lecturer

### **Abstract**

This article discusses the political and social foundations of cultural development in India during the Mughal (Baburid) period. The author reveals how state governance, social environment, and political stability influenced the development of culture, science, and art.

**Keywords:** Mughal period, history of India, political factors, social factors, cultural development, state governance, science, art.

Boburiylar sulolasi Hindistonni 1526–1857-yillar oralig‘ida boshqardi. O‘sha davrda hindlar mamlakatida shimoldan kelgan barcha istilochilarni “mughal” deb atagani sababli, yevropaliklarning bu so‘zni buzib aytishi natijasida Boburiylar davlati tarixshunoslikda “Buyuk Mo‘g‘ullar davlati” deb noto‘g‘ri nom oldi [1]. Shuning uchun ham asli nasli Amir Temur avlodi bo‘lgan Boburiylar zamonaviy G‘arb manbalarida Buyuk Mo‘g‘ullar, hind manbalarida esa Buyuk Mughallar (Great Mughals) tarzida uchraydi.

Boburiylar Temuriylar sulolasining bir bo‘lagi edi: sulolaning asoschisi Boburning otasi — Farg‘ona amiri Umar-Shayx Mirzo Jaloliddin Mironshoh, Temurning uchinchi o‘g‘li avlodi edi. Boburning onasi Qutlug‘ Nigorxonim (1459–1505) Toshkent hududlari hukmdori Yunusxonning qizi bo‘lgan, shuning uchun Bobur onasi tomonidan Chingizxon avlodi edi [2]. 1494-yilda Bobur Farg‘ona vodiysini otasidan meros qilib oldi va u yerda 1500-yilgacha hukmronlik qildi. Sulola boshqaruvida Hindiston yagona bayroq ostida yangi bir madaniy yuksalishni boshdan kechirdi.

Asosiy qism. 1500–1505-yillarda Shayboniyxon Movarounnahrni egallashi va Temuriylar ichidagi nizolar sababli Bobur Afg‘onistonga chiqib ketishga majbur bo‘ldi. 1504-yilda Bobur o‘zining yangi davlati poytaxti bo‘lgan Kobulni egalladi.

Bobur Hindistonga yo‘l olgan vaqtda Hindiston shimolida ichki nizolar avj olgan edi. Xususan, 1477-yildan boshlab Dehli sultonligida ichki nizolar avj olib, sultonlik inqirozga yuz tutdi, mahalliy hokimlar markaziy hukumatga bo‘ysunmay qo‘ydi. Lohurda Davlatxon, Dehlida Ibrohim Lo‘diy, Mevarda Rano Sango mustaqillik e‘lon qildilar.

Bobur bundan foydalanib, 1519 va 1524-yillari Kobuldan Panjobga yurish qildi va katta o‘ljalar

olib qaytdi. 1525-yil Rano Sango o'z raqibi Ibrohim Lo'diyni yengish va shu tariqa Shimoliy Hindistonni qo'lga kiritish maqsadida Bobur bilan ittifoq tuzdi.

Dastlabki jang 1526-yili Dehlidan uzoq bo'lmagan Panipat nomli shahar yaqinida ro'y berdi. Bobur o'zining qo'shinidan bir necha baravar ko'p bo'lgan raqibi Ibrohim Lo'diy qo'shinini yengdi. Sulton jangda halok bo'ldi. Bobur Dehli va Agra shaharlarini egalladi. G'alabadan keyin Boburning bir qator safdoshlari unga Afg'onistonga qaytishni taklif qildi. Harbiy boshliqlardan bir qismi o'z askarlari bilan birga Qobulga qaytdilar. Lekin Boburning niyati o'z Vatanida amalga oshira olmagan niyatini ro'yobga chiqarish, kuchli davlat tuzish edi. Bobur ilgarigi fotihlar singari (masalan, Mahmud G'aznaviy, Amir Temur va boshqalar) Hindistonni tashlab chiqmay, shu yerda qolishga qaror qildi.

U 1527-yilning mart oyida Sikri yonida bo'lgan jangda Rano Sangoni ham yengib, butun Shimoliy Hindistonni bo'ysundirdi. Bobur 1530-yil dekabr oyida vafot etdi. U o'zi fath etgan mamlakatlarni o'g'illariga: Hindistonni to'ng'ich o'g'li Humoyunga, Panjobni Komron Mirzoga, Kobul va Qandahorni Askariy Mirzoga, Badaxshonni Hindol Mirzoga taqsimlab berdi. Humoyun o'z mulkini kengaytirish maqsadida 1534-yil Gujarat va Bihorga yurish qildi. Humoyun afg'on sur qabilasining nufuzli yetakchilaridan Sherxon bilan Chousa va Qunuj (Kanauj)da bo'lgan janglarda mag'lubiyatga uchrab, dastlab Sind va Qandahorga, u yerdan esa Eronga, shoh Tahmasp huzuriga qochdi.

Shunday qilib, Shimoliy Hindiston 1555-yilgacha Sherxon va uning avlodi tasarrufida qoldi. 1555-yil Humoyun chig'atoy, afg'on, eron, turkman va ko'chmanchi o'zbek qabilalaridan katta qo'shin to'plab, Hindistonga yurish qildi, o'sha yilning iyun oyida Surni yengib, Dehlini egalladi. Lekin oradan bir yil o'tgach, Humoyun saroy kutubxonasi zinapoyasidan yiqilib, fojiona halok bo'ldi. 1556-yil taxtga uning hali balog'atga yetmagan o'g'li Akbar o'tqazildi. Akbar Boburiylar davlatini birmuncha kengaytirishga muvaffaq bo'ldi. Akbar davrida Hindukushdan janubidagi Godavari daryosigacha bo'lgan yerlar Boburiylar davlati tasarrufiga o'tdi. Boburiylar davlatida siyosiy va ma'muriy barqarorlik o'rnatildi.

Shunday qilib, Boburiylar sulolasi (1526–1858-yillar) davrida Hindistonning deyarli barcha yerlari zabt qilindi. Mustaqil hind knyazliklari faqat Hindiston yarimorolining eng janubiy qismidagina saqlanib qoldi. Umuman, Bobur va uning avlodlari Hindistonni talamadilar, balki tarqoq knyazlarni birlashtirib, yirik davlat barpo etdilar. Eng muhimi, ular turli e'tiqodli kishilarni, hindlar bilan musulmonlarni mumkin qadar birlashtirib, har ikkisini davlat ishlariga jalb qildilar. Boburning Hindistondagi ijtimoiy tayanchi ko'p sonli bo'lmagan harbiy feodallar edi. Avvalambor, ular Boburning o'zi bilan kelgan turk va afg'on harbiylari bo'lgan. Hindistonda asrlar davomida yashab kelayotgan feodallar, xususan, Lo'dilar sulolasi davrida ko'chib kelganlar ham ancha katta guruhni tashkil qiladi.

Boburiylar davrida soliq va ma'muriy islohotlar o'tkazildi. Xususan, podsho qo'l ostidagi ra'iyat hosilning 1/3 qismini soliq sifatida davlatga to'lardi. Soliqning pul sifatida yig'ilishi haqidagi farmon chiqarilgan edi. Yirik yer egalari in'omga olgan yerlaridan yuz ming rupiy daromad qilardilar. Uning 1/3 qismini feodal podsho xazinasiga berardi. Har yuz ming rupiy daromad hisobiga feodal 100 tadan otlq jangchi saqlashi va ta'minlashi zarur edi. Demak, yirik harbiy feodallarning bir necha yuz otlq jangchisi bo'lgan. Ba'zi hollarda yirik yer egalari mulki "pargana" deb atalgan ma'lum soliq birligiga to'g'ri kelsa, unga soliq yig'ish uchun pargana taqdim qilinardi. Bobur nabirasi Akbar markaziy davlat apparatini mustahkamlashga qaratilgan bir qancha islohotlar o'tkazdi. Yer solig'i, davlatni boshqarish tartibi xususidagi qonunlarni ishlab chiqdi. Birinchi qonunga binoan natural soliq pul solig'i bilan almashtirildi. Bu tadbir davlatning moliyaviy ahvolini yaxshiladi. Akbar jizya, ziyoratchilardan olinadigan soliqni, soliq to'plovchilarning maoshi (dorug'a)ni, chopar hamda amaldorlar uchun to'lanadigan yig'im (qo'nalg'a)ni, bozordan yig'iladigan bir qancha soliq va jarimalarni bekor qildi. Akbar zamonida ichki va tashqi savdo rivojlandi. Dengiz orqali olib boriladigan savdoda Gujarat va Bengaliya alohida o'rin egalladi. Savdo yo'llarida karvonsaroy va quduqlar bunyod etilishi savdoni rivojlantirdi. Akbar XVI asrning 60–70-yillarida bir qator islohotlar o'tkazdi. Podshoh hokimi mutlaq hisoblanib, uning huzurida maxsus vakillik mahkamasi tashkil etildi. Bu islohot mamlakatni birlashtirish va davlatni markazlashtirishda muhim rol o'ynadi. Akbarning o'g'li Jahongirshoh (1605–1627) otasi davrida joriy etilgan feodal tartiblarni mustahkamladi, Boburiylar davlatini kengaytirish siyosatini davom ettirdi.

Umuman olganda, Boburiylar Hindistonni uzoq davr mobaynida mohirlik bilan boshqarib turdi. Mamlakatning juda katta qismida siyosiy birlikni saqlab, bu ulkan imperiyaning tinchlikda gullab-yashnashini ta'minlay oldilar. Ular raqib bilan urush olib borishning vositalari va uslublarini takomillashtirdilar. Hindistonda birinchi bor artilleriyani qo'lladilar [3]. Shuningdek, adabiyot va tasviriy san'atning har sohada o'sib rivojlanishiga rahnamolik qildilar. Hind tarixchisi S. R. Sharma Boburni Angliya qiroli Genrix VII bilan taqqoslaydi. Ularning ikkalasi ham o'ziga qadar bo'lgan taxt sohibi va da'vogarlarini surib tashlab, o'z sulolasini davlat tepasiga olib kelib o'rnatdilar. Shu munosabat bilan Sharma shunday deb yozadi: "1526-yilda Zahiriddin Muhammad Bobur Panipat yonidagi jangda Ibrohim Lo'diy ustidan g'alabaga erishib, Hindiston tarixida yangi davrni yaratdi va Dehli taxtiga yangi sulolani olib keldi. Xuddi shunga o'xshab, undan qirq yil avval Bosfor maydonidagi jangda g'olib chiqqan Genrix VII ham Angliyada o'z sulolasi va davlat boshqaruvini o'rnatgan edi." Boshqa bir hind tarixchisi R. P. Tripatining ta'kidlashicha, "Boburiylar imperiyasining tantanasi uning harbiy qudrati tufayligina emas, balki o'z siyosatida diniy e'tiqod erkinligini amalga oshirgani va madaniy hayotga katta hissa qo'shganligi tufaylidir." Bu siyosatni esa Bobur boshlab bergan edi [4].



Xulosa. Boburiylar davrida Hindistonning xorijiy mamlakatlar bilan aloqalari tiklandi. Afg'oniston mamlakatning bir bo'lagi sifatida Hindiston bilan Eron, Markaziy Osiyo va ular orqali G'arbnig uzoq mamlakatlari bilan aloqa bog'lash uchun vositachilik vazifasini bajarib turdi. Bu hol esa xorijiy mamlakatlar bilan savdo ishlarini yo'lga qo'yish va Hindistonning yanada ravnaq topishiga imkoniyat yaratar edi. Shuningdek, G'arbiy Osiyo mamlakatlari bilan madaniy aloqalarni saqlashga ham yordam berar edi. Boburiy hukmdorlarning ko'pchiligi dinga nisbatan xolis nazar bilan qarar edilar. Ular ko'r-ko'rona din ketidan quvishdan ko'ra imperiya barpo etishni afzal ko'rar edilar [5]. Shuning uchun ham mamlakat aholisining ko'pchiligini tashkil etuvchi hindlarning e'tiqodini ham qo'llab-quvvatlashga harakat qilishardi. Deyarli uch asr davomida ikki xil e'tiqoddagi, ikki xil turmush tarzidagi jamoani bir-biriga yaqinlashtirib, diniy raqobatga yo'l qo'ymasdan hindlar bilan musulmonlar yonma-yon holda yashab keldilar. Bu esa Boburiylar madaniyatining birodarlik, bag'rikenglik, ijod erkinligi asosida shakllanishiga xizmat qildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kumar S. A study on the history of the Mughal Empire // International Journal of Advanced Research and Development. – 2017. – Vol. 2, Issue 5.
2. The Cambridge History. Vol. IV, Chapter 1. – Cambridge, 1922–1937.
3. Erskine U. Bobur Hindistonda. – Toshkent: Cho'lpon nashriyoti, 1995. – B. 57–59.
4. Qudratullayev H. Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi. – Toshkent: Sharq, 2011. – B. 29.
5. Bobur va Boburiylar merosi – faxr-iftixor manbai. – URL: <http://xs.uz/uz/post/bobur-va-boburiylar-merosi-faxr-iftixor-manbai>
6. Hoshimov I. Hindistonda Boburiylar sulolasi saltanati. – Toshkent: O'qituvchi, 1994.
7. Gupta S. S., Irani P. Fatehpur Sikri: Akbar's Magnificent City on a Hill. – 2013.
8. Benton L. Law and Colonial Cultures: Legal Regimes in World History, 1400–1900. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002.
9. Losty J. P., Roy M. (eds.). Mughal India: Art, Culture and Empire. – 2013.
10. Rehman A. Changing concepts of garden design in Lahore from Mughal to contemporary times // Garden History. – 2009. – Vol. 37, No. 2.
11. Singh U. A History of Ancient and Early Medieval India. – New Delhi: Pearson Education, 2008.
12. Dale S.F. The Garden of the Eight Paradises: Babur and the Culture of Empire in India. Leiden: Brill
13. Sparke P., Fisher F. The Routledge Companion to Design Studies. – New York: Routledge, 2016.